



## RUS TILINI O'QITISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Mirzayeva Aziza Azamatovna

Toshkent Viloyati, Toshkent tumani 2- Umumiy ta'lim maktabi  
Rus – tili o'qituvchisi

Mirzaevaaziza36@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17413829>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 22-oktabr 2025 yil

### KEYWORDS

*rus tili ta'limi, kommunikativ metod, lingvistik muhit, pedagogik salohiyat, interaktiv yondashuv, CEFR, raqamli ta'lim texnologiyalari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida rus tilini o'qitish jarayonida uchrayotgan asosiy tizimli va metodik muammolar tahlil qilinadi. Muallif rus tili ta'limidagi dolzarb masalalar — o'qituvchilar malakasining yetarli emasligi, o'quv materiallarining eskirganligi va lingvistik muhitning yetishmasligi kabi omillarni ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda til amaliyotiga yo'naltirilgan o'qitish uslublarini joriy etish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.*

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish, ayniqsa, mintaqaviy aloqalarni mustahkamlovchi tillarni o'rganish O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Rus tili esa nafaqat Markaziy Osiyo hududida muhim muloqot tili, balki ilm-fan, texnologiya va iqtisodiy hamkorlik uchun ham asosiy ko'prik vazifasini o'taydi. Mamlakatimizda rus tiliga bo'lgan talab yuqori bo'lishiga qaramay, uni o'qitish jarayonida bir qator tizimli va metodik muammolar mavjud bo'lib, bu o'quv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqola rus tilini o'qitishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha amaliy takliflarni taqdim etishga qaratilgan.

### Tadqiqot metodlari (Methods)

Tadqiqot davomida taqqoslovchi, lingvodidaktik tahlil, kuzatuv, intervyu va content-tahlil usullari qo'llanildi.

Taqqoslovchi tahlil orqali ingliz tili va rus tilini o'qitish jarayonidagi o'xshashliklar va farqli jihatlari o'rganildi. Ta'limdagi mavjud metodlar va yondashuvlar CEFR mezonlari asosida solishtirildi.

Intervyu metodi orqali esa Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Qarshi shahridagi 40 nafar rus tili o'qituvchilarining fikrlari o'rganildi.

Content-tahlil metodi orqali mavjud adabiyotlar ko'rib chiqildi. O'quv dasturlarining darsliklar va metodik qo'llanmalarining zamonaviy talablarga mosligi baholandi.

Deskriptiv tahlil usuli orqali olingan natijalar uch asosiy toifaga: o'qituvchilar salohiyati, o'quv materiallari sifati va lingvistik muhit yetishmasligi ajratildi

### Natijalar (Results)

## 1. Rus Tili O'qitishidagi Asosiy Muammolar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda respublikamizda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganish yoshlar o'rtasida ommalashib bormoqda. Buning asosiy sababi dunyo miqyosida ko'plab ilmiy, ta'limiy ma'lumotlar aynan shu tilda yoritilmoqda. Lekin statistikaga nazar soladigan bo'lsak rus tili ham o'z vaqtida va hozirga qadar eng ko'p ilmiy yangiliklar muhokama qilinadigan tillardan biridir. Biroq yillar davomida bu tilni o'qitish sifati borgan sari pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunga bir qator faktorlar misol bo'la oladi. Rus tilini o'qitish sifati pasayishiga ta'sir etuvchi muammolarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: Ushbu tilda faoliyat olib borayotgan pedagoglarda yetarli salohiyatning yo'qligi, tilni o'qitish uchun ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar va o'quv-uslubiy ta'minotning eskirganligi hamda rus tili o'qituvchilari uchun mo'ljallangan almashinuv dasturlari yetarli emasligi.

### 1.1. O'qituvchilar Salohiyati va Metodikasi

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda bo'lgan raqobat rus tili fanini o'qitish jarayoniga deyarli ta'sir ko'rsatmayapti. Natijada bu fanni o'qitish usullari yangilanmay ananaviy metodlar orqali o'rganib kelinmoqda. Faqat grammatika-tarjima usuli orqali ta'lim olgan til o'rganuvchilar esa til imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishmayapti. Ya'ni asosiy e'tibor jumalarni yodlashga va grammatik qoidalarni bilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchining erkin muloqot (gapirish va eshitish) malakalari yetarli darajada rivojlanmaydi. O'qituvchilarning zamonaviy xalqaro standartlarga (masalan, CEFR) mos yangi didaktik yondashuvlar bo'yicha bilimlarini muntazam yangilab borish tizimi samarali emas. Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan o'qituvchilarning 68 foizi kommunikativ metodlardan yetarli foydalanmasligini tan olgan. Faqat 22 foiz o'qituvchi muntazam ravishda CEFRga mos malaka oshirish kurslarida qatnashgan (Karimova, 2020).

Bu holat o'qituvchilarning **refleksiv kompetensiyasi** pastligi bilan izohlanadi. Ularning ko'pchiligi grammatik-tarjima metodiga tayanib, o'quvchining nutqiy faolligini rivojlantira olmayapti (Galskova & Gez, 2019).

Natijada, o'qituvchilarning o'zlari ham so'zlashuv amaliyotini kamaytirib yuborganligi sababli, dars jarayonida tabiiy, jonli til namunalari yetishmaydi. Ba'zi o'qituvchilar faqat sinf uchun mo'ljallangan instructive til namunalari mustahkam bilishadi lekin jonli muloqot davomida biroz qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatiladi. Bundan tashqari mavjud darsliklarda, o'quv uslubiy qo'llanmalarida O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy konteksti to'liq aks etmaganligi sababli o'quvchilarda tilni hayotiy vaziyatlarda qo'llash motivatsiyasi past bo'ladi. Aynan mavzuga oid bo'lgan audio, video resurslar, interaktiv topshiriqlar va online platformalarning yetishmasligi ham tilni o'zlashtirish jarayoniga sezilarli ta'sir etadi. (Karimova, 2020). Shuningdek, texnik infratuzilmaning zaifligi va raqamli savodxonlikning pastligi mavjud resurslardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda (Ta'lim sifati inspeksiyasi, 2023).

### 1.2. O'quv Materiallari va Texnik Ta'minot

Ko'pgina ta'lim muassasalarida o'quv materiallarining holati ham muammoli. Mavjud darsliklar ko'pincha O'zbekiston kontekstiga mos emas yoki eskirgan maishiy mavzularni o'z ichiga oladi. Til o'rganishda juda muhim bo'lgan audio, video materiallar, interaktiv topshiriqlar va til laboratoriyalari yetarli emas yoki umuman yo'q. Shu bilan birga, ko'plab maktablarda internet tezligi va raqamli savodxonlikning pastligi sababli onlayn platformalar va mobil ilovalardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

### 1.3. Lingvistik Muhitning Yo'qligi (Til Amaliyoti Muammosi)

Tilni o'rganish uni qo'llash amaliyotiga bog'liq. O'quvchilar darsda grammatikani yaxshi bilsa-da, xato qilishdan qo'rqib, real hayotiy vaziyatlarda rus tilida gaplasha olmaydi – bu "**muloqot to'sig'i**" (языковой барьер) deyiladi. (Galskova & Gez, 2019). Darsdan tashqari mashg'ulotlarning, rolli o'yinlar va muhokamalarning yetishmasligi ushbu muammoni yanada kuchaytiradi. Til amaliyotiga yo'naltirilgan topshiriqlar — eshitish, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini integratsiyalash orqali bu holatni bartaraf etish mumkin (Karimova, 2020). Darsdan tashqari vaqtda rus tilida muloqot qilish, film ko'rish yoki kitob o'qish imkoniyati cheklanganligi sababli tilni faol qo'llash uchun muhit yaratilmaydi. Bundan tashqari dars davomida role-playlardan, gapirish, yozish, eshitish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan topshiriqlar hamda hayotiy vaziyatlar ni tasvirlab berish kabi qo'shimcha mashg'ulotlardan foydalanish orqali o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalari samaradorligiga erishish mumkin bo'ladi.

**Muhokamalar (Discussions)** Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

#### **Pedagogik Yondashuvni Tubdan O'zgartirish**

O'qitish metodikasining asosiga tilni *qo'llash* qobiliyatini rivojlantirish qo'yilishi kerak. **Kommunikativ yondashuvga o'tish** orqali darslar muloqotga asoslangan o'yinlar, vaziyatli rolli o'yinlar va munozaralarga boy muhitni yaratish mumkin. Mobil ilovalar, interaktiv doskalar va onlayn platformalar kabi **zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish** o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning "til to'sig'i"ni yengish uchun, ularga xato qilishdan qo'rqmasdan gapirishga ruxsat beruvchi do'stona muhit yaratish lozim. Darslardan keyin qo'shimcha tilni faol o'zlashtirish uchun ta'lim muassasalarida "**Rus tili klublari**", "**Munozara to'garaklari**" va "**Til do'stlari**" dasturlari hamda raqamli ta'lim texnologiyalarini (Quizlet, Padlet, Duolingo, Yandex Repetitor) integratsiya qilish esa o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan qiladi (CEFR, 2020)ni tashkil etish lozim (Karimova, 2020). Ushbu tashabbuslar o'quvchilarga film tomosha qilish, adabiy kechalar, sahna ko'rinishlari va debatlarida qatnashish orqali tilni tabiiy muhitda qo'llash imkonini beradi. Rus tilini darslarini interfaol usullar orqali o'rgata oladigan o'qituvchilarni tayyorlash kurslari tashkil etish orqali ham tilni o'zlashtirish jarayonini ijobiy tarafga o'tkazishimiz mumkin bo'lafdi. Bundan tashqari xorijiy til o'qituvchilari kabi rus tili o'qituvchilari ham almashinuv dasturlarida ishtirok etib, Rossiya Federatsiyasi va boshqa MDH davlatlaridagi yetakchi til markazlari bilan hamkorlikda **tajriba almashish dasturlarini** yo'lga qo'yishsa ham sohada bo'layotgan yangiliklarni amaliyotga joriy qilish imkoniyatlari kengaygan bo'lardi. O'qituvchilarning o'z nutq malakasini oshirish uchun esa faqat rus tilida muloqot qilinadigan davra suhbatlari va klublar tashkil etilishi kerak.

#### **Xulosa**

Rus tilini o'qitish jarayonidagi muammolarni bartaraf etish, shubhasiz, O'zbekistonning ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalaridan biridir. Metodikani kommunikativ uslubga o'zgartirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va eng muhimi – o'quvchilar uchun til amaliyotini yaratib berish ushbu qiyinchiliklardan chiqishning asosiy yo'llaridir. Ushbu kompleks yechimlar nafaqat o'quvchilarning til bilish darajasini oshiradi, balki ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ham zamin yaratadi. Natijada o'quvchilar tilni amaliy muloqot vositasi sifatida qo'llashga erishadi, bu esa ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi (Ta'lim sifati inspeksiyasi, 2023). Rus tili ta'limining sifatli

rivojlanishi mamlakatning ilmiy, madaniy va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Council of Europe, 2020.
2. Galskova N.D., Gez N.I. (2019). Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Moskva: Akademiya.
3. Nazarova, M. (2021). Rus tilini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Karimova, S. (2020). Xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari. "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, №4.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi. (2023). Xorijiy tillar ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.

